



**MEHRLI MAKTABDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINI
O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI SO‘ZLARNING O‘Z VA KO‘CHMA
MA’NOLARINI O‘RGANISHGA YORDAM BERUVCHI METODLARDAN
FOYDALANISH**

*Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab”
davlat ta’lim muassasasi Samarqand viloyati filiali pedagog xodimi*

Abdullayeva Madina Xolmamatovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada gospital ta’lim maktablarida o‘quvchilarning ona tili va adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishda so‘zlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. So‘zlarning ma’no ko‘chish turlari, o‘zgarishi, sinonimlar, antonimlar, frazeologizm va idiomalar bilan ishlashni o‘rgatish orqali o‘quvchilarga tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. So‘z boyligi va ularning ishlatilishidagi nozik farqlarni tushunish, o‘quvchilarga nutq madaniyatini rivojlantirishda, shuningdek, ona tili va adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishni oshirishda katta ahamiyatga ega. Maqolada ona tili va adabiyot fanining samarali o‘qitilishi, o‘quvchilarga ona tili fanida so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini o‘rgatishga yordam beruvchi interfaol metodlardan foydalanish haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: gospital ta’lim, individual ta’lim, ko‘chma ma’no, metodlar, so‘z boyligi, semantika, metafora, metonimya, sinegdoxa, kreativlik, innovatsiya, nutq madaniyati.

“Maktablarda ta’lim sifatiga qanday e’tibor bersak, ma’naviyatga ham shunday e’tibor berishimiz kerak”

Shavkat Mirziyoyev

Yurtimizda bugungi kunda ko‘p sohalar qatori ta’lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlarning katta qismini esa ta’lim sohasida



amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etadi. Keng ko‘lamli islohotlarning yana biri 2022-yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq bugun yurtimizda “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi tashkil etilib, o‘z faoliyatini olib bormoqda. Tashkil etilganiga ikki yildan oshiq vaqt bo‘lgan Mehrli maktabning Toshkent shahrida va viloyatlarda ham o‘z filiallari mavjud bo‘lib, bular: “Mehrli maktab” Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali , “Mehrli maktab” Andijon viloyati filiali, “Mehrli maktab” Farg‘ona viloyati filiali, “Mehrli maktab” Samarqand viloyati filiali, “Mehrli maktab” Namangan viloyati filiali, “Mehrli maktab” Buxoro viloyati filiali, “Mehrli maktab” Toshkent shahri ambulator filiali.

Uzoq muddat davolanayotgan, bolalar uchun alohida ishlab chiqilgan o‘quv reja asosida 1-11-sinflar xajmida umumiy o‘rta ta’lim beriladi. Dars mashg‘ulotlarining davomiyligi boshlang‘ich ta’lim (maktab) ning 1-4-sinflarida 30 daqiqa, 5-11-sinflarda ham 30 daqiqani tashkil etadi. Bunda bir kunlik dars mashg‘ulotlari 1-4-sinflarda 3 soatdan, 5-11- sinflarda 4 soatdan bo‘lib, o‘quv haftasi davomiyligi esa 5 kunlik asosida olib boriladi. Muassasada yana yakka (individual) dars mashg‘ulotlari ham tashkil etilgan. Bunda pedagog xodim shifokor xulosasiga ko‘ra o‘quvchining darsga chiqishiga ruxsat berilmagan holatda uning xonasiga borib dars tashkil qilishi lozim. Gibrid usulda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish esa yoshi va sinfi bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilarni bir vaqtda dars mashg‘ulotlariga jalb qilishdir. Bunda o‘quvchilar va pedagog xodim tibbiy-gigiyenik qoidalarga (barcha o‘quv jihozlari dizinfeksiya qilinishi, hamma o‘quvchilar va o‘qituvchida tibbiy niqob bo‘lishi, antiseptikdan tez-tez foydalanish va h.k) to‘liq amal etilgan holda dars jarayoni tashkil etiladi. “Mehrli maktab” da faoliyat olib borayotgan pedagoglar davolanayotgan o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘zi o‘qitayotgan fanini o‘quvchiga tushunarli hamda mazmunli tarzda yetkazib berishi lozim. Bu esa o‘qituvchidan har doim izlanishda bo‘lishni va mahoratni talab etadi. Eng muhim jihat esa muassasada ta’lim berayotgan pedagogning davolanishda



bo'lgan bolalarga shirin so'zli bo'lishi, ularga ruhan dalda berish orqali ularning hayotga, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdir.

Shifoxonada uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun maktabda keng imkoniyatlar mavjud. Har bir xona zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan. Bularning barchasi yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijasidir.

Ona tili va adabiyot fani aynan o'quvchilarni teran fikrlashga, erkin muloqotga, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi, xalq og'zaki ijodiyoti, ma'naviy meroslarimizga hurmat, ona tilini sevishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini biz ona tili orqali adabiyot fani bilan bog'lab o'rganamiz. Bunda shoirlarning ijod mahsulidan namunalar keltirish orqali ona tilida ularning ma'nolari o'rganiladi. Bunda o'quvchini darsga qiziqishini orttirish maqsadida interfaol metodlardan foydalaniladi. So'zlarning o'z ma'nosida qo'llanilishi quyidagicha:

- ✓ Quyosh -osmondagi yorug'lik beruvchi yoritgich
- ✓ Kitob- o'qish uchun mo'ljallangan bosma nashr
- ✓ .Daraxt- tanasi,shoxi va barglari bo'lgan o'simlik

Ko'chma ma'noli so'zlar-so'zning o'xshashlik asosida boshqa tushunchani ifodalashi:

1. Metafora orqali:
 - ✓ “Yurak-sevgi uyi” (Yurak sevgi bilan bog'liq his tuyg'ularni ifodalaydi)
 - ✓ “Hayot-daryo” (Hayotning oqimi daryoga o'xshatiladi)
2. Metonimiya orqali:
 - ✓ “Butun shahar uyg'ondi” (shahar odamlari nazarda tutilgan)
 - ✓ “Navoiyni oldim qo'limga” (Navoiyning asarini o'qish)
3. Sinekdoxa orqali:
 - ✓ “Qo'li gul” (Mohir usta haqida)
 - ✓ “Boshi og'riyapdi” (Butun tanasi kasal)

Bu usullarni qo'llash orqali nutqimiz ta'sirchan va badiiy bo'ladi. Ma'no ko'chish turlari orqali o'quvchilar adabiyot fanining qay darajada jimjimador ekanligini payqashadi va she'rlar yodlash orqali ham “tag” ma'noli so'zlarni



anglaydi. Ona tili bilan bog'lab o'rganishda turli metodlardan foydalaniladi, bular orqali sodda va qiziqarli qilib yetkazib beriladi.

Aqliy hujum metodi: O'quvchilar muammoni hal qilish uchun erkin fikr bildiradilar. Barcha g'oyalar qabul qilinadi va muhokama qilinadi. Guruh bo'lib eng yaxshi yechim tanlab olinadi. Shu asosida erkin muloqot qilinib o'quvchilarning mustaqil fikrlashga bo'lgan intilishlari taminlab beriladi va har bir bola alohida e'tirof etiladi.

Keys-stadi metodi: Real hayotiy vaziyatlar tahlil qilinadi. O'quvchilar muammoni aniqlaydilar va yechim izlaydilar, bu vaziyatda o'qituvchi ham o'quvchilar bilan birgalikda ishtirok etadi. Shunda o'qituvchini ham o'zlarini guruhidan ekanligini his qilishadi va 2 guruhga bo'linishadi har bir guruhda 2 tadan bolalar qatnashadi. Bu vaziyatda har bir guruh a'zosi faol ishtirok etadi. Deylik birorta asar olinadi. undagi ma'no ko'chish hodisalari aniqlanadi va bolalar o'zlarini munosabatlarini berishadi, oxirgi xulosa umumlashtirilib, shu asosida guruhlar yangi matn yozishga harakat qilib ko'rishadi. Bu metod orqali bola mustaqil fikrleydi va ijodkorligini sinab ko'radi, o'zidagi tortinchoqlik odatlarini yo'qotishga erishadi. Badiiy asarlarga bo'lgan qiziqishi ortadi, bunda o'qituvchining yutug'i har bir bola bilan alohida ishlaydi, ona tili va adabiyotga bo'lgan mehri yanada ortadi.

Yumaloq stol metodi: Bu metodda o'quvchilar stolga aylana bo'lib o'tirib olishadi va o'zlari yod olgan she'rlardan to'rt misradan aytishadi, Qolgan bolalar har biri yonida turgan qog'ozlarga she'rdagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini yozishadi, keyin o'qib navbat bilan tahlil qilishadi. Qaysi o'quvchining javobi qoniqarli bo'lmasa u ham yodlagan she'rini bolalarga taqdim etadi. Shu orqali hamma bolalar faol qatnashadi. Bu metodda o'qituvchi hamma o'quvchilarni darsga jalb qiladi va xotirasini mustahkamlaydi.

“Ha” “yo‘q” metodi: Bu metod o'quvchilarning tezkorligini va diqqatini oshiradi bunda 4ta yoki 6ta o'quvchi qatnashadi har bir o'quvchiga alohida savollar tayyorlanadi. Savol kartochkalari tanlanadi va o'qituvchi savollarni berishni boshlaydi bola “ha”, yoki “yo‘q” so'zlarini qo'llashi mumkin emas. Bunda asosan savollar



maqol va iboralar yordamida tuzilgan bo‘ladi, ularning ma’nolarini to‘g‘ri aytishi kerak.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘z fikrlarini erkin bayon eta olishiga, atrofdagilar fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtai nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. “Mehrli maktab” o‘z nomi bilan mehrga to‘la maskan. Mehr-muhabbat bilan ta’lim berish esa maktab tarbiyalanuvchilarini hamda ta’lim oluvchilari uchun katta ruhiy madad bo‘lib kelmoqda. Bu maktabda ta’lim oluvchilarning barchasi sog‘ligida kamchiligi bor bolalar. Shu murg‘ak qalblarning dardiga malham bo‘lish uchun doimo shirin so‘z bo‘lish “Mehrli maktab” maktabda faoliyat yuritayotgan har bir xodimning oliy maqsadidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev 29.04.2019- yildagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli qaror.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2022-yildagi “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 234-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2023-yildagi Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 134-sonli qarori.
4. A.Toshpulatov, Gospital maktablarida o‘qitish metodikasi. O‘qituvchi.Toshkent: 2017
5. D.Ibragimov, “Leksikologiya va uning o‘qitish jarayonidagi o‘rni”. Samarqand davlat universiteti nashriyoti. Samarqand:2015